Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDYIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDYIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIY TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	



INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Alimova Oydin Baxtiyarovna

O'zbekiston Milliy Universiteti,

Davlat va korporativ strategiyalar mutaxassisligi magistranti

Email: baxtiyarovnaoydin16@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy komponentlarning roli yoritilgan hamda mintaqa miqyosida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatida inson kapitalining sifat ko'rsatkichlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, innovatsion iqtisodiyot, raqamli savodxonlik, blockchain, big data, avtomatlashtirish.

Abstract. This article highlights the role of the main components that significantly influence the development of human capital in the context of an innovative economy and presents the tasks that need to be implemented at the regional level. It also analyzes the volume of investments allocated to the qualitative indicators of human capital in the Republic of Uzbekistan and Tashkent Region.

Key words: human capital, innovative economy, digital literacy, blockchain, big data, automation.

Аннотация. В данной статье освещается роль основных компонентов, существенно влияющих на развитие человеческого капитала в условиях инновационной экономики, а также представлены задачи, которые необходимо реализовать на региональном уровне. Кроме того, анализируется объем инвестиций, направленных на качественные показатели человеческого капитала в Республика Узбекистан и Ташкентская область.

Ключевые слова: человеческий капитал, инновационная экономика, цифровая грамотность, блокчейн, большие данные, автоматизация.

KIRISH

Inson kapitali bugungi globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim tarkibiy omil hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyot — bu innovatsiyalar oqimiga, uzluksiz texnologik takomillashtirishga, yuqori texnologik va qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga, shuningdek, texnologiyalar eksportiga asoslangan iqtisodiyot turidir¹. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali nafaqat ishlab chiqarish omili, balki eng muhim va asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Buning sababi shundaki, aynan bilim, tajriba, intellektual salohiyat va qobiliyat yangi g'oyalar, ilg'or texnologiyalar hamda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yaratilishining asosiy manbai hisoblanadi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, malaka oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyati — natijasida ilmiy izlanishlar hajmi oshadi, startaplar va innovatsion loyihalar soni ko'payadi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan yangi ish o'rinlari vujudga keladi.

Natijada mamlakatning barcha sohalarida barqaror rivojlanish va innovatsion o'sish shakllanadi, shu bilan birga davlatning xalqaro reytinglardagi hamda global iqtisodiyotdagi o'rnini sezilarli darajada mustahkamlanadi. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar asosi sifatida inson kapitalini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, innovatsiya rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi².

Barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning yangi innovatsion modelini yaratishda innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish hamda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi yangi institutsional mexanizmlarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

1 M. Stoican, I. Camarda. Innovation Economy and the Importance of Human Capital in the Developed Countries. International journal of education and information technologies Issue 4, Volume 5, 2011

2 Sh. Mirziyoyev, "Creating an environment for innovation in the mindset of our people is our most important task," President of the Republic of Uzbekistan, [Online]. Available: <https://president.uz/oz/lists/view/1309>



Mamlakatning innovatsion jihatdan rivojlanishi bir tomondan inson hayoti sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, boshqa tomondan jamiyatda shaxslarning qobiliyati, kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitalining iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq qilinishi bosqichma-bosqich shakllanish tarixiga ega. Bu borada turli olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Xususan, Teodor Shults tomonidan taklif qilingan "inson kapitali" atamasi iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan hamda mehnat unumdorligini oshiradigan bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida ta'riflanadi³. Ayrim yondashuvlarda esa nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki tabiiy qobiliyatlar va tajriba ham inson kapitalining tarkibiy elementlari sifatida qaraladi⁴.

Iqtisodiyot faniga qo'shgan salmoqli hissasi uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan amerikalik iqtisodchi Gari Bekker 1964-yilda chop etilgan Inson kapitali asarida zamonaviy inson kapitali nazariyasini shakllantirdi hamda ushbu tushunchani makroiqtisodiy darajada tahlil qilgan dastlabki olimlardan biri bo'ldi. U inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida ta'lim va o'qitishga alohida e'tibor qaratgan.

Bekkerning tadqiqotlarida ish joyidagi umumiy va maxsus o'qitish turlari farqlanadi. Umumiy o'qitish jarayonida xodimlar boshqa kompaniya yoki sohalarda ham qo'llash mumkin bo'lgan ko'nikmalarni egallaydilar. Maxsus o'qitish esa ma'lum bir korxona yoki tor faoliyat sohasi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, olim ta'limning iqtisodiy samaradorligini inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiya sifatida empirik baholash modelini ham taklif etgan⁵.

Innovatsion iqtisodiyot bilimlarning jadal rivojlanishi va ulardan samarali foydalanishga asoslangan bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotda yuqori sifatli inson kapitalining alohida rolini belgilaydi. Zamonaviy sharoitda har qanday tashkilotning iqtisodiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan raqobatbardosh innovatsion korxonalar faoliyatiga bog'liq⁶.

Innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalar shaxs, korxona va umuman milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, korxonalar oldida raqamli transformatsiya natijasida yuzaga keladigan imkoniyatlardan samarali foydalanish va undan olinadigan foydani oqilona taqsimlash⁷ vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda miqdoriy va sifat tahlillariga tayanadi. Ilmiy tahlil jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot doirasida statistik ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining yillik hisobotlari, Global Innovation Index hamda Global Network Index ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

An'anaviy iqtisodiyotda asosiy resurs kapital va yer hisoblangan bo'lsa, innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulk va yuqori darajadagi inson kapitali muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida inson kapitalini sifat va miqdor jihatdan rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur jarayon o'z oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi. 1-rasmda keltirilganidek, ushbu vazifalarni amalga oshirish inson kapitalining bir nechta asosiy komponentlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Chunki yuqori texnologik iqtisodiyot aynan bilim, malakali kadrlar va ijodkorlik asosida rivojlanadi. Shu bois mamlakatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda innovatsiyaga asoslangan ta'lim yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

3 Schultz T.W. (1961) Investment in human capital. The American Economic Review, vol. 51, no 1, pp. 1–17.

4 Bontis N. (1999) Managing organizational knowledge by diagnosing intellectual capital: Framing and advancing the state of the field. International Journal of Technology Management, vol. 18, no 5, pp. 433–462.

5 Becker G.S. (1994) Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education, Chicago: The University of Chicago Press.

6 Alexankov, A.M., Trostinskaya, I.R., Pokrovskaya, N.N., 2017. Industry 4.0 requirements for quality of human capital and competences formed within educational institutions. In: Institutions International Conference on Research Paradigms Transformation in Social Sciences. Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 18-21 May, Tomsk, Russia, 35, pp. 26-34. <http://doi.org/10.15405/epsbs.2018.02.4>

7 Manakhova, I., Bystrov, A., Ignatyeva, G., Alekhina, O., 2019. Personnel security in the conditions of digitalization of the economy. In: Proceedings of the Volgograd State University International Scientific Conference: Competitive, Sustainable and Safe Development of the Regional Economy. AEBMR-Advances in Economics Business and Management Research, Volgograd, Russia, 83, 391-395. <https://doi.org/10.2991/cssdre-19.2019.76>



Bugungi kunda innovatsion ta'lim yondashuvlari orasida STEM yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu tizim o'quvchilarda innovatsiyalar yaratish, mantiqiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish, dizayn va texnologiyalarni uyg'unlashtirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda kelajak kasblariga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Mamlakatimizda STEM yo'nalishidagi bitiruvchilarning ulushi 2018-yildagi 32,1 foizdan 2024-yilda 40,5 foizgacha oshgani mehnat bozorida texnik va muhandislik mutaxassislariga bo'lgan talabni qondirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyoti jadal rivojlanayotganligi sababli mutaxassislarning malaka va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlar malakasiga qilingan investitsiyalar nafaqat samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi, balki innovatsiyalar yaratish hamda yangi texnika va texnologiyalarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yurtimizda ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korxona va tashkilotlarda qayta o'qitish dasturlari, cross-trening mashg'ulotlari, mentorlik darslari va uzluksiz o'qitish dasturlari joriy etilgan.

Salomatlik holati ham inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimida joriy etilayotgan innovatsiyalar orqali yangi imkoniyatlar kengaymoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar insonlarning o'rta umr ko'rish davomiyligini, tibbiy xizmatlar samaradorligini hamda turmush farovonligi darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalar dastlab qo'shimcha xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatda iqtisodiyot uchun muhim samaradorlik yaratadi.


Innovatsion komponent inson kapitalining sifatini barqaror rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda startaplar, texnoparklar va inkubatorlar innovatsion g'oya hamda texnologiyalarga asoslangan biznes shakli bo'lib, ular an'anaviy iqtisodiyotni innovatsion va raqamli iqtisodiyotga aylantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatda startaplar rivoji yuqori malakali mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish orqali mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda samaradorlik va raqobat ustunligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, muvaffaqiyatli startaplar investitsiya oqimini oshiradi va xorijiy venchur kapital ulushining kengayishiga xizmat qiladi.

Yurtimizda ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, texnoparklar orqali sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida "aqlli texnologiyalar" keng joriy etilmoqda.

Jahon Intellectual Mulki Tashkiloti tomonidan har yili Global Innovation Index e'lon qilinadi. Mazkur hisobotda 139 ta davlatning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari hamda dunyo miqyosidagi 100 ta yirik innovatsion klasterning faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Global Innovation Index 7 ta yo'nalish va 78 ta ko'rsatkichdan iborat bo'lib, u turli iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholash imkonini beradi.

O'zbekiston 2025-yilda 139 ta mamlakat orasida 79-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich 2020-yildagi 93-o'rin bilan solishtirilganda 14 pog'onaga yaxshilanganini ko'rsatadi. O'zbekiston "Tadbirkorlik siyosati va madaniyati" yo'nalishida 3-o'rin, "Mehnat unumdorligi o'sishi" bo'yicha 6-o'rin, startaplarni moliyalashtirish bo'yicha 6-o'rin, "Fan va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilar" ko'rsatkichi bo'yicha 13-o'rin hamda "YalMning ta'limga xarajatlar ulushi" bo'yicha 24-o'rinni egallagan. Bu natijalar mamlakatda iqtisodiy samaradorlik va innovatsion salohiyat oshib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar ulushi, PISA natijalari hamda kam uglerodli energiyadan foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha yanada kengroq rivojlanish imkoniyatlari mavjud⁸ (1-rasm).



1-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Global Innovatsion indeksi. 2020-2025⁹.

⁸ F. Islomov. Global innovatsiyalar indeksi–2025: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.

⁹ Muallif ishlanmasi.



Ushbu rasmda keltirilganidek, 2025-yilda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yuqori natijalardan birini qayd etdi. Keyingi o'rinlarda Qozog'iston (65-o'rin), Qirg'iziston (90-o'rin) hamda Tojikiston joylashgan. O'zbekistonning ushbu natijasi mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya va innovatsion islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.


Raqamli komponent barqaror rivojlanish kontekstida inson kapitalini sifat va miqdor jihatdan rivojlantirishda "operatsion tizim" vazifasini bajaradi. Mamlakatda raqamli texnologiyalar darajasining oshishi ta'limning inklyuzivligi, mehnat bozori samaradorligi hamda ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar tufayli insonlarning jismoniy va intellektual mehnati bir necha barobar samaraliroq bo'lmoqda. Masalan, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi ishlab chiqarish tarmoqlarida murakkab vazifalar avtomatlashtirilmoqda, raqamli platformalar esa dunyoning istalgan nuqtasidan turib ishlash imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa yuqori malakali mutaxassislarning mamlakat ichida faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Raqamli hukumat tizimi orqali fuqarolarning hujjatlar, litsenziyalar va xizmatlar bilan bog'liq jarayonlari soddalashtirilmoqda. Shu bois mamlakatning barcha hududlarida raqamli savodxonlikni oshirish, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish hamda my.gov.uz xizmatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot ulushining ortib borayotganini mamlakatning Network Readiness Indexdagi ko'rsatkichlaridan ham ko'rish mumkin. Mazkur indeks 2002-yildan buyon e'lon qilinib, 4 ta asosiy ustun va 12 ta kichik yo'nalish asosida mamlakatlarning raqamli tayyorgarlik darajasini baholaydi.

2025-yilda O'zbekiston ushbu indeksda 127 ta mamlakat orasida 46,47 ball bilan 72-o'rinni egalladi. Bu natija 2024-yildagi 81-o'rin bilan taqqoslaganda 9 pog'onaga yaxshilanganini ko'rsatadi. MDH mamlakatlari orasida esa Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinni egallagan (2-rasm).




2-rasm. MDH mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasining Tarmoq tayyorligi indeksi¹⁰.

4K ko'nikmalari. Bugungi kunda har bir inson uchun zarur bo'lgan 4 ta asosiy ko'nikma — kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya — inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida aynan ushbu ko'nikmalarga ega mutaxassislar talab ortib bormoqda.

Mazkur ko'nikmalar insonlarga murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantirish, o'z fikrini jamoa oldida aniq va tushunarli bayon etish hamda jamoada samarali ishlash imkoniyatini beradi.

Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitali sifatini barqaror rivojlantirishning asosiy strategik maqsadi nafaqat bilimli mutaxassislarni tayyorlash, balki yuqori texnologik qiymat yarata oladigan hamda kreativ salohiyatini iqtisodiy mahsulotga aylantira oladigan jamiyatni shakllantirishdan iboratdir (3-rasm).

¹⁰ Muallif ishlanmasi.



3-rasm. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida inson kapitali sifatini oshirishning konseptual modeli¹¹.

Hudud miqyosida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ta'sirini baholash ilmiy va amaliy jihatdan bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson kapitali va innovatsion rivojlanish o'rtasida chiziqsiz bog'liqlik mavjud bo'lib, inson kapitali iqtisodiy barqaror o'sishga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda joriy etilgan Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ustuvor vazifalar hamda yo'nalishlar natijasini so'nggi yillarda innovatsiyalar va inson kapitalining asosiy ko'rsatkichlarida kuzatilayotgan sezilarli o'sish sur'atlarida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatida inson kapitalining ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli, innovatsion va institutsional komponentlarini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar asosida tahlil o'tkazildi (1-jadval).

11 Ilmiy manbalalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyati inson kapitali sifat ko'rsatkichlari 2025-yil¹².

	YalM o'sish surati %	Ta'limga investitsiyalar	Sog'liqni saqlashga investitsiyalar	Tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar mlrd. so'm	AKTdan foydalanish darajasi YalMda %	Joriy qilingan innovatsiyalar soni
O'zbekiston Respublikasi	106,7	71240,5	33439,0	1 574,1	2,4 (5 139,1 mlrd so'm)	5521,0
Toshkent viloyati	10,3	79,9 mlrd,so'm	81,3 mlrd,so'm	125,1 (7,9%)	252 mlrd,so'm	478 (8,6%)

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida YalMning o'sish sur'ati 106,7 foizni tashkil etgan bo'lib, uning 10,3 foizi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Davlat miqyosida inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi oshgan. Jumladan, sog'liqni saqlash sohasiga 33 439,0 mlrd so'm, ta'lim sohasiga esa 71 240,5 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lib, bu ijtimoiy sohadagi eng katta ulushni tashkil etadi.

Ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'larga nisbatan qariyb ikki baravar ko'p bo'lib, bu innovatsion iqtisodiyot sharoitida malakali va bilimli mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda tadqiqot va ishlanmalar soni 1 603 040 tani tashkil etgan hamda ushbu yo'nalishga 1 574,1 mlrd so'm mablag' ajratilgan. Toshkent viloyatida esa bu ko'rsatkich 125,1 mlrd so'mni tashkil etib, respublika umumiy ulushida viloyat hissasi 7,9 foizga teng bo'lgan.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi YalMda 2,45 foizni yoki 5 139,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Jadvalning eng muhim qismi mamlakatda joriy qilingan innovatsiyalar ulushi bo'lib, ushbu ko'rsatkich yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi va amaliy natijalarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda jami 5 521 ta innovatsiya yaratilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yil bilan taqqoslaganda 1 729 taga oshgan. Toshkent viloyatida esa jami 478 ta innovatsiya ishlab chiqilgan bo'lib, bu respublika umumiy ulushining 8,6 foizini tashkil etadi.

Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi inson kapitalini innovatsion sharoitda barqaror rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar va tahlillarga ko'ra, innovatsion muhitda inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson kapitali asosiy tarkibiy omil hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy bilim va malakalarga ega, kreativ fikrlay oladigan hamda tez o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarur.

Bu jarayonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli savodxonlikni oshirish, yoshlarni innovatsion faoliyatga keng jalb etish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- STEM ta'lim yo'nalishlarini yanada rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash;
- startaplar, texnoparklar va biznes inkubatorlar faoliyatini kengaytirish;
- hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish;
- sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- yoshlarning kasbiy malakasini oshirish va uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatda inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga, innovatsion salohiyatning oshishiga hamda iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stoican, M., & Camarda, L. (2011). Innovation Economy and the Importance of Human Capital in the Developed Countries. International Journal of Education and Information Technologies, 5(4).
2. Shavkat Mirziyoyev. "Creating an Environment for Innovation in the Mindset of Our People is Our Most Important Task." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.



3. Teodor Shults. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17.
4. Nick Bontis. (1999). Managing Organizational Knowledge by Diagnosing Intellectual Capital: Framing and Advancing the State of the Field. International Journal of Technology Management, 18(5), 433–462.
5. Gari Bekker. (1994). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: The University of Chicago Press.
6. Alexankov, A. M., Trostinskaya, I. R., & Pokrovskaya, N. N. (2017). Industry 4.0 Requirements for Quality of Human Capital and Competences Formed within Educational Institutions. Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 35, 26–34.
7. Manakhova, I., Bystrov, A., Ignatyeva, G., & Alekhina, O. (2019). Personnel Security in the Conditions of Digitalization of the Economy. Advances in Economics, Business and Management Research, 83, 391–395.
8. Islomov, F. Global Innovatsiyalar Indeksi – 2025. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>